

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА



2021 йил махсус сон



Бош муҳаррир: Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

Масъул муҳаррир: Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор М.Р.Кодирхонов

Масъул муҳаррир ўринбосари: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи Р.Жалалов

ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аъзамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тўхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов, ф-м.ф.д., доц. Р.Хақимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад.С.Рашидова, акад. А.Тўраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.д. Н.Абдурахмонов.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Қишлоқ хўжалиги фанлари: – г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д. проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

Фалсафа фанлари: –ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д., проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н. доц.М. Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, п.ф.д., проф Ў.Асқарова, п.ф.н., доц. М.Нишонов, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: – б.ф.д. Ғ.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари – п.ф.д., проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник муҳаррир: Н.Юсупов.

Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи кўчаси, 316-уй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** ilmiy@inbox.uz

Ушбу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август кунги 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 27.10.2021 йилдаги кенгайтирилган йигилишида муҳокама қилиниб,

илмий тўплам сифатида чоп этишга рухсат этилган (Баённома № 13). Мақолаларнинг илмий савияси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.



Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Шукрона – Ҳ / 5-жилдли. Бешинчи жилд. А.Мадвалиев тахр.остида. Тахрир ҳайъати: Э.Бегматов ва бошқ. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 499-б.
2. Ўша манба. 500-б.
3. Коллаборация // [https:// ru.wikipedia.org/wiki/Коллаборация](https://ru.wikipedia.org/wiki/Коллаборация).
4. Коллаборация // [https:// ru.wikipedia.org/wiki/Коллаборация](https://ru.wikipedia.org/wiki/Коллаборация).
5. Авво Б.В. Социальное партнерство в условиях профильного обучения / Учеб.-мет. пособие для админ. и учителей общеобраз. учреждений / Под ред. А.П.Тряпицкой. – СПб.: КАРО, 2005. – С. 8.
6. Иванов С.А. Социальное партнерство как феномен цивилизации // Ж. Социологии и социальной антропологии. Том VIII. – СПб.: 2005. - № 3. – С. 90.
7. Заславская О.В., Сальников О.Е., Кожуров О.Ю. Социальное партнерство семьи и школы в сфере воспитания: векторы взаимодействия // Ж. Известия Пензенского ППУа им. В.Г. Белинского. – Пенза: 2012. - № 28. – С. 788.
8. Мусурмонқулов Ф.У. Ўқувчилар маънавиятининг ривожланишида мактаб, оила ва маҳалла ҳамкорлиги // Ж. Замоновий таълим. Т.: 2017. - № 2. - 75-76-б.
9. Левицкая И.А. Социальное-образовательное партнерство в современных социокультурных условиях // <http://cyberleninka.ru/article/n/sotsialno-obrazovatelnoe-partnerstvo-v-sovremennyh-sotsiokulturnyh-usloviyah>.
10. Социальное партнерство // <http://www.berezovsky.krskstate.ru/page10971>

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Xomidova Dilorom Abduraxmonovna, Namangan davlat universiteti maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti maktabgacha talim metodikasi kafedrasida oqituvchisi, dilorom xomidova @ bk.ru dx1974

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish masalalari, tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari, bolalarning qiziqishlari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda bolalarning o'z fikrini erkin, mustaqil bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, ta'lim texnologiyasi, Interfaol texnologiya, ta'lim samaradorligi “Sinkveyn” metodi, assotsiativ fikr.

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА К ШКОЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ.

Хомидова Дилором Абдурахмоновна учитель кафедры методики дошкольного образования НамГУ

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы развития дошкольного образования, образовательного процесса, развития у детей интересов и творческих способностей, а также



эффективных способов использования интерактивных образовательных технологий в развитии способностей детей к свободному и независимому самовыражению.

Ключевые слова: технология, технология обучения, интерактивная технология, эффективность обучения, метод "Синквейн", ассоциативное мышление.

THE IMPORTANCE OF USING INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN PREPARING PRESCHOOL CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION.

Khomidova Dilrom Abdurakhmonovna. teacher of the Department of Preschool Education Methodology, NamSU

Annotation: The article discusses the development of preschool education, the educational process, the development of children's interests and creative abilities, as well as effective ways of using interactive educational technologies in the development of children's abilities for free and independent self-expression.

Key words: technology, learning technology, interactive technology, learning efficiency, "Sinkwine" method, associative thinking.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizimida o'sib kelayotgan yosh avlodlardan har tomonlama kamol topgan, intellektual qobiliyatga ega bo'lgan, barkamol, rivojlangan mamlakatlar bilan raqobatlasha oladian shaxsni trrbiyalash va tayorlash uchun avvalo, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarning kreativligini (ijodiy faolligini) oshirishga e'tiborni kuchaytirish zarur. Bunga ta'lim sohasida to'siq bo'luvchi bir qancha masalalar mavjud. Masalan, bolalar qiziqarli va ajoyib g'oyalarga ega bo'lsalarda tarbiyachi o'zi kreativ tarzda yondashmaganligi tufayli ularni ifodalashda sustkashlikka yo'l qo'yilishi va faoliyat jarayonida qo'llanilayotgan metodlar bolalarda erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakillantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish" bandida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish alohida ta'kidlangan. Bunday ulkan vazifani amalga oshirish esa yosh avloddan ijodiy faollikni talab qiladi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini ta'minlash, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdai bolalarga samarali ta'lim-tarbiya berish hamda qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"ning maqsadi ham maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya ya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv texnologiyalar va o'qitish uslublari asosan o'yinlarda qo'llaniladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola uchun o'yin asosiy faoliyat turi bo'lib, tarbiyachi u orqali bolaga uning yoshida kerak bo'lgan hamma



narsani o'rgatishi mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotida mavzu uchun eng mos keladigan voqeaband va rolli o'yinlar mavjud bo'lib, ularni tashkil etish jarayonida bolalar faol ishtirok etishadi va o'rganishadi, bu jarayonlar esa bolalar hayotida bir umr esda qolishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish, tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlari, bolalarning qiziqishlari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda bolalarning zerikmasligi va o'z fikrini erkin, to'laqonli bayon eta olishini kuchaytirishga alohida e'tibor berishimiz lozim, bunda esa interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning katta samarali tomonlari bor.

O'rgatishning zamonaviy metodlarini qo'llash ta'lim-tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir mashg'ulotning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Bu esa tarbiyalanuvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish bolalarning o'zlashtirish darajasini o'sishiga olib keladi. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish uchun qo'llaniladi

Buning uchun MTTda ta'lim-tarbiya jarayoni oqilona tashkil qilinishi, tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim-tarbiya jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, mavzu bo'yicha kichik guruhlariga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, MTTning o'quv-moddiy sharoiti, mashg'ulotning davomiyligi, tarbiyachining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bola markazda bo'lgan yondashuvning yuqori darajada rag'batlantirilishi, oldingi bilimlarining e'tiborga olinishi, bolaning tashabbuskorligi va ma'suliyatining qo'llab-quvvatlanishi, fikr-mulohazasini erkin bayon etishiga sharoit yaratilishi kabi foydali jihatlari namoyon bo'ladi.

Quyida Maktabgacha ta'lim tashkilotlari katta va tayyorlov guruhlarida tashkil etilishi mumkin bo'lgan interfaol ta'lim metodlardan birini ko'rib chiqamiz:

SINKVEYN METOD ("Mashina" so'zi asosida)

Mashina		
Yashil	Katta	
Yuradi	Ovoz chiqaradi	Boshqariladi
Mening yashil mashinam	katta va chiroyli	
O'yinchoq		

Bu metod orqali bolani fikrlash qobiliyatini, tasavvurlarini, bilim va malakalarini, qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.



Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bolalarning ijodiy qobiliyat va layoqatlarini rivojlantirishda bir qanch interfaol metod va texnologiyalar mavjud. Jumladan, "Klaster", "Zinama-zina", "FSMU" texnologiyalari va "Aqliy hujum", "Rolli o'yinlar", "Kichik guruhlarda ishlash", "Blits so'rov" kabi metodlarini aytib o'tish mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayonida ushbu metodlarni mashg'ulotning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, loyihalashtirib qo'llash quyidagi natijalarga olib keladi:

- * bolalarning faoliyatga qiziqishlari va motivatsiyasi kuchayadi;
- * bolalarning faoliyatda zerikishi va charchashining oldi olinadi;
- * bolada ijodiy ishlash ko'nikmalari va faol fikr rivojlanadi;
- * mavzu bo'yicha yangi assotsiativ fikr va tasavvurni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Fikrlashning assotsiativ jarayonini va shu bilan birga ijodkorlikni rivojlantirish mumkin. Barmoqlarni bosish orqali assotsiatsiyalarning mohiyatini tezda anglash va qiziqarli tasvirlarni yaratish mumkin bo'lgan maxsus texnologiyalar mavjud.

Dastlab, tafakkurning assotsiativ turi nima ekanligini aniqlaylik. Bu turli xil tasvirlar va tajribalarni bir-biriga bog'lashdan iborat. Masalan, biz yangi yilni arha bilan, ta'tilni esa basseyn bilan bog'laymiz. Bolalarda assotsiativ fikrlashni rivojlantira olish mumkin. Uy sharoitida foydalanish uchun quyidagi ba'zi oddiy mashqlar mavjud:

1-mashq

Qalam bilan daftarni olinadi. Bu yanada qulayroq bo'ladi va bunda xotirani zo'riqtirishga hojat yo'q. Gazetada, kitobda yoki boshqa biron bir manbada bitta so'zni topiladi. Har bir keyingi so'z oldingisi bilan bog'lanishi uchun unga 10 ta assotsiatsiyani o'ylab ko'rish aytiladi. Agar bunday mashqni bola bilan bajarishni rejalashtirmoqchi bo'lsak, unda dastlab uni tezroq tushunib olish kerak, shunda u bu usulni tezda tushunadi.

Endi bir xil so'z uchun 10 ta assotsiatsiyani nomlash tavsiya etiladi, ammo so'zlar bir-biriga umuman aloqasi yo'q bo'lishi kerak.

2-mashq

Bolaning fikri kuzatib boriladi: ikkala holatda ham nima uchun ushbu uyushmalarni tanlanganini bolaga tushuntirish kerak.

Masalan, misol uchun:

Asl so'z "olma"

Birlashtirilgan uyushmalar: *meva, daraxt, barg, yoz, yozgi uy, uy.*

Bilan bog'liq emas: *noutbuk, sidr, Snow White, charlotte, kungaboqar urug'lari.*

"Daraxt" so'zini "meva" so'zi bilan nomladim, chunki mevalar ham daraxtlarda o'sadi.

Keyin fikrlash jarayonini bir-biriga bog'liq bo'lmagan assotsiatsiyalar jarayonida kuzatishga harakat qilinadi: *men "qor oq" dan keyin "charlotte" dedim, chunki ertakda Snow White mitti bilan yashagan va ularning uyida farovonlikni saqlagan va men uchun qulaylik pishirilgan mahsulotlar va, ayniqsa, sharlotning hidi.*

Barcha assotsiatsiyalar tushuntirilgandan so'ng, asosiy so'z va undagi barcha uyushmalar ishlatiladigan hikoya tuzish taklif qilinadi.

Shunday qilib mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Amaliyotda foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash bolalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. bolalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi,



bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda katta rol o'ynaydi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda bolalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'grisida" gi Qonuni , Toshkent.sh.,2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y.,03/19/595/4160-son)
2. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019-yil 8- may, №PQ-4312
3. Maktabgacha ta'limning bola rivojlanishidagi roli .Majena Rafalska 2020
- 4.Maktabgacha ta'lim tashkilotining «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari Bola ta'lim jarayoni markazida. Toshkent 2020
5. Kamoldinov M, Vahobjonov B, Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari Toshkent" "Talqin" 2010 y
6. Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. (trenirlar uchun qo'llanma)Toshkent, O'MKHTRI. 2002 y.
7. Kamoldinov M, Vahobjonov B, Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent "Talqin" 2010 y.



175	“Тayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida o‘qish savodxonligini” rivojlantirishning pedagogik-psixologik mohiyati va tahlili.	
	Ҳақимов А.О.	837
176	Ҳамкорлик педагогикасининг мазмуни, моҳияти, тамойиллари, муҳим ва таркибий элементлари	
	Раҳматова Х.А.	844
177	Мақтабгача yoshdagi болаларни мақтаб та’лимга тайyorlashda inter faol та’лим texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati	
	Хомидова Д.А.	851

НАМАЎГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСУТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ

НАУЧИЙ ВЕСТНИК НАМАЎГАНСКОГО
УНИВЕРСИТЕТА

